MANTIQIY MIQYOSDAGI GRADASIYA HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna
dosent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
Andijon davlat chet tillari instituti
Andijon, Uzbekiston
Mahmudova1076@gmail.com

Mantiqiy miqyosdagi gradatsiya deganda ikki yo'nalish: o'sish va kamayishda amalga oshiriladigan belgi o'zgarishlarini qayd qilish va mazkur jarayon natijalarini qayd qilish jarayonlari tushuniladi. Belgi o'zgarishi real hayotda sodir bo'ladigan jarayon sifatida uzluksizlik bilan xarakterlanadi. Inson idrok etish jarayonida o'zgarishlarning alohida bosqichlarini qayd qilish, ularni gradatsiyalashtirish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga gradatsiyalanish jarayoni, belgining gradatsiyalanishi belgi o'zgarishidagi alohida bosqichlarni maxsus bo'linishi yordamida qayd qiluvchi gradatsiyaviy shkalaga muvofiq amalga oshiriladi. Gradatsiya semantik va struktural jihatdan ko'rib chiqilishi mumkin. Birinchi holatda gradatsiyaning semantikasi, turli usul va vositalar bilan gradatsiyaning tilda ifodalanishi, boshqacha qilib aytganda tildagi gradatsiyalanish kognitiv kategoriyasining amalga oshirish mexanizmi. Struktural munosabatda esa, turli til birliklarining o'zaro aloqasi gradatsiyasi, turli til gradatsiyalarining bir biriga o'tish hodisalari tadqiq qilinadi. Struktural gradatsiya xususan ierarxik tarzda tashkil topgan funktsional-semantik maydonlarni tuzishda qo'llaniladi. Demak, gradatsiyaning semantik aspektda tadqiqi gradatsiyalanishga xos hodisalarining xususiyatlarini aniqlash imkonini bersa, struktural gradatsiya orqali tilni anglash jarayoni sodir bo'ladi. Gradatsiyaviylik – belgining xususiyati, uning o'zgarish qobiliyati sanalib, ma'lum davrdagi o'zgarishlar bilan qayd qilingan bo'ladi. Gradatsiyaviylik kognitiv-semantik kontsept sifatida qaraladi. Kognitiv tadqiq qilinayotgan kontsept gradatsiyaviylikning tilda namoyon bo'lishi insonning fikrlash faoliyatini aks ettirishi sababli shunday nomlangan, u inson ongida sodir bo'layotgan kognitiv jarayonlar bilan asoslangan. Qayd qilish kerakki tilshunoslik fanida gradatsiyaviylik va shunga o'xshash kategoriyalar kontsept maqomini oldi[8.385]. O. Yespersen[5.404], I.I. Meshaninov[9.387], S.D. Katsnelson[6.852], A.V. Bondarko[3.208], T.V. Buligina[4.221], V.Z. Panfilov[3.18] va boshqa olimlar ishlari kontseptual kategoriyalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynadi[7.40], tilshunoslikda alohida so'z yoki ularning shakllari tizimiga emas balki turli vositalar bilan tabiiy tilda ifodalanadigan so'zlarning keng sinfiga xos umumiy xarakterdagi fikr komponentlari sifatida belgilanadi»[8.385]. Kontseptual kategoriyalar ularni ko'rib chiqish jihatiga bog'liq holda falsafiy, mantiqiy, psixologik, ontologik, tildan tashqari, kognitiv, semantikaga bo'linadi. Bu mazkur kontseptlarning universalligi, inson uchun ularning juda muhimligi va bilishning turli sohalarida ularni tadqiq qilish zarurligidan dalolat beradi. Kognitiv termini kontsept terminiga nisbatan kengroq hisoblanadi, modomiki ularning barchasi bilish tushunchasi bilan izohlanadi. Gradatsiyaviylik tushunchasini aniqlash uchun kognitiv terminidan foydalanish shu bilan asoslanganki u mazkur tadqiqotning tanlangan jihatlarini kengroq ochib beradi.

Semantik tushuncha sifatida gradatsiyaviylikning izohi shu bilan anglashiladiki mazkur kategoriya eng avvalo leksik miqyosda o'z aksini topadi, ammo u boshqa bosqichda keltiriladi. Masalan morfema miqyosida gradatsiya tushunchasi morfema ishtirokida keltirilgan. Tilning grammatik tizimida gradatsiyaning grammatik shakllari va nutq qismlarining alohida guruhlarida izohlanadi. Sintaksis miqyosida gradatsiyaviylik tushunchasi maxsus tuzilmalar yordamida aks ettiriladi.

Gradatsiyaviylik boshqa semantik tushunchalar xususan intensivlik tushunchasi bilan aloqani aniqlaydi. Mazkur tadqiqotda intensivlik deganda gradatsiyaviy belgilardan biri tushuniladi. Intensivlikdan tashqari miqdor, o'lcham, baho kabi boshqa gradatsiyaviy belgilar ham ajratiladi. Shunday tarzda gradatsiyaviylik tushunchasi intensivlik tushunchasiga qaraganda ancha kengdir.

S.M. Kolesnikova gradatsiyaviylikni ifodalashda inson omilining muhim ahamiyatini qayd qilish kerakligiga e'tibor qaratadi: gradatsiyalanishning til vositalarini tanlash til egasiga bog'liq. Ammo S.M. Kolesnikovadan farqli ravishda u mazkur tanlovni so'zlovchining til shaxsiyati yaratadi deb hisoblaydi, mazkur ishda gradatsiyalanish vositalarini tanlash til shaxsiyligi xususiyatlari ko'rsatkichi hisoblanishi tasdiqlanadi.

Yuqorida keltirilgan ishlarda gradatsiyalanganlik va u bilan bog'liq intensivlik asosan til tizimida tadqiq qilingan. Matnda, muhokamaning turli xillarida gradatsiyaviylikni o'rganish ancha qiziqarli va istiqbolli hisoblanadi. Bu quyidagi masalalarni ko'rib chiqishni ko'zda tutadi: qanday til vositalari gradatsiyaviylikni ifodalash tizimidan nutqni qabul qiladi, qaysilari o'zi yaratiladi; tilning turli gradatsiyalari qanday tarzda muhokamaning turli shakllarida gradatsiyaviylikni ifodalash uchun o'zgaradi; qanday funktsional yuklama turli muhokamalarda gradatsiyaviylik indikatorlarini bajaradi. Sanab o'tilgan masalalar tadqiqotchi nazaridan chetda qoladi. Bundan tashqari gradatsiyaning kognitiv asoslarini aniqlash zarur: gradatsiya kontseptining o'ziga xosliklari va uni taqdim qilishning til usullarini belgilash, gradatsiyaning kontseptual sohasi tuzilmasi va boshqa kontseptual sohalar bilan uning aloqasini aniqlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аспекты семантических исследований. – М.: Наука. – 1980. – С. 320-354.

2. Булыгина Т.В. Грамматические и семантические категории и их связи //

3. Панфилов В.З. Категории мышления и языка. Становление и развитие категории количества в языке // Вопросы языкознания. – 1971. - № 5. – С. 3-18.

4. Бондарко А.В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии. – Л.: Наука, 1983. – 208 с.

5. Есперсен О. Философия грамматики: Пер. с англ. – М.: Изд-во иностр. лит., 1958. – 404 с.

6. Кацнельсон С.Д. Категории языка и мышления: Из науч. наследия. – М.: Яз.слав. культуры, 2001. – 852 с.

7. Кобрина Н.А. Понятийные категории и их реализация в языке // Понятийные категории и их языковая реализация: Межвузовский сб. науч.тр. – Л.: ЛГПИ им. Г.И. Герцена. – 1989. – С. 40-49.

8. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. – М.: Сов.энциклопедия, 1990. С 385-386 (683 с).

9. Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. – Л.: Наука, 1978. – 387 с.